

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13733886>

TA'LIMNING KREDIT-MODUL TIZIMI VA AFZALLIKLARI

Salomov Muxtor Muzaffar o'g'li

Shahrisabz tuman 2-son kasb-hunar maktabi o'qituvchisi;

Nurulloeva Sevinch Bahromovna

Shahrisabz tuman 2-son kasb-hunar maktabi o'quvchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'limning kredit-modul tizimi va ushbu tizimning imkoniyatlari haqida ma'lumotlar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Kredit, ECTS, Kredit-modul, syllabus, Program Learning Outcomes, mobillik.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019-yil 8-oktabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da OTMlarining 85 foizi 2030-yilgacha bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tishining rejalashtirilganligining o'zi bu boradagi ilmiy ishlarning qanchalik dolzarbligini anglatadi.

Kredit - (zachyot birligiga aylanuchi Yevropa tizimi (ECTS) (European Credit Transfer and Accumulating System)) kredit jamlash tizimidir. Ushbu ta'lim tizimi Yevropaning qator OTMlarida 1989-yilda o'tkazilgan turli tadqiqotlardan muvafaqiyatli o'tgan va qabul qilingan. Shuni aytish joizki, ushbu ta'lim tizimi talabaning umumiy yuklamasiga asoslanadi.

Dastlab kredit tushunchasi chetdan kelib o'qiyotgan talabalar uchun ishlatilgan va unga ishonch bildirilgan. OTMlari uchun kelishilgan holda bir xil, yagona kreditlarni o'rnatilishi talabaning akademik mobilligini ya'ni bosh oliy ta'lim muassalarida

bemalol o'qishini davom ettirishini, talabaning OTMLari orasida bemalol almashinilishini, to'plangan kreditlarni boshqa oliy o'quv yurtlarda tan olinishini ta'minlashga yordam berdi. Hozirgi kunga kelib, Yevropa kredit tizimi Yevropaning deyarli barcha davlatlarida tan olinadigan va amal qiluvchi tizim hisoblanadi. Talaba belgilangan kredit (soat miqdorlarini) ballarini to'plagan taqdirdagina tahsilni tamomlaganligi haqidagi hujjatni ya'ni diplomni olishga erishadi.

Oliy ta'limda bir qancha muammo va zamonaviylashishiga ehtiyoj tug'ilgan paytda kredit-modul tizimi deyarli barcha mamlakatlar oliy ta'lim tizimiga kirib keldi. Bu esa o'z o'rnida oliy ta'limda xohlaganday o'qitib, talabalarning esa o'zi xohlagandek o'qishini emas, balki talabalarga yo'naltirilgan, uni mustaqil ta'lim olishga undaydigan ta'limni olib kirdi. Umuman olganda ta'limning "*Kredit-modul tizimi*" kelib chiqishiga quyidagi ehtiyojlar *asosiy omil* bo'lib xizmat qildi:

- oliy ta'lim dasturlariga erkinlik olib kirish ehtiyoji;
- o'quv dasturlarini zamon, mehnat bozori va talabalar ehtiyojlari asosida shakllantirish ehtiyojlari;
- mamlakat oliy ta'lim tashkilotlarini mamlakatdan tashqaridagi OTMLar bilan aloqalarini yaxshilash;
- mamlakat OTMLarini xalqaro maydonda e'tirof etilishiga erishish ehtiyoji.

Kredit-modul tizimi mamlakat oliy ta'lim tizimiga quyidagilarni taqdim etadi:

- OTM larda talabalar o'qish yuklamasining muvozanatli taqsimoti;

Kredit-modul tizimida kreditlarning fanlar bo'yicha taqsimoti, masalan 5, 6 yoki 7.5 kreditni tashkil etishi mumkin. Bu degani talaba bir semestrda ko'pi bilan 4 ta, 5 ta yoki juda bors 6 ta fanni o'rganadi ($30/7.5=4$; $30/6=5$; $30/5=6$). Bu esa o'z navbatida talabalarning o'quv semestri davomidagi o'rganishi zarur bo'lgan fanlar soni amaldagi tizimdagisidan anchagina kamayishini anglatadi. Ya'ni, kredit-modul tizimi oliy ta'lim tizimi o'quv dasturlariga me'yor va sifat olib kirishi, ta'limni tashkil etishda son ko'rsatkichidan sifat ko'rsatkichiga o'tishga xizmat qiladi. Chunki fanlar sonining bu tarzda qisqarishi, endilikda talabalar u vaqt va imkoniyatlarini ana shu kam sonli fanlarni chuqurroq va har tomonlama o'rganishlariga imkoniyat yaratadi.

- OTM lar o'quv dasturlariga tanlov fanlarini kirib kelishi;

Bu kredit-modul tizimiga o'tishning muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Ushbu jihatlardan biri sifatida talabalarni o'qishining dastlabki yillarida sohasiga oid asosiy, umumkasbiy fanlar bo'yicha o'qitilib, o'z sohalarini bo'yicha umumiy bilimlarni egallab bo'lganlaridan so'ng, ularni sohalariga oid maxsus fanlarni o'z qiziqishlaridan kelib chiqib o'zlari tanlagan holda o'qish imkoniyatiga ega bo'lishlarini aytish mumkin. Bunda OTM talabalarga o'quv yili davomida taklif qilinayotgan tanlov fanlarning ro'yxatini va ular haqida batafsil ma'lumotlarni taqdim etadi. Talabalar esa ushbu ro'yxat va ma'lumotlar asosida o'zlari qiziqqan fanlarni tanlaydilar. Ushbu jarayonda har bir talaba o'zining bakalavr yoki magistratura o'qish dasturini sezilarli ma'noda o'zi shakllantirishga imkoniyatiga ega bo'ladi. Ya'ni, guruhda 50 nafar talaba bo'lsa, ularning har biri o'z qiziqishlariga ko'ra o'z o'qish dasturlariga ega bo'ladi.

- OTM lar o'quv dasturlarida fanlarning saralanishi;

Qisqacha aytganda, OTM o'qish dasturlarining umumiy, mutaxassislikka to'g'ridan-to'g'ri aloqasi bo'lmagan, o'zini takrorlovchi fanlar bilan to'ldirilishi talaba oliy dargohdagi qisqa va eng qimmatli vaqtdan samarali foydalana olmasligiga olib kelmoqda.

ECTS kredit-modul tizimida esa OTM lar o'zining har bir bakalavr va magistratura o'quv dasturi maqsadlarini oldindan aniq belgilab olishi talab etiladi. Ya'ni, ular ma'lum mutaxassisliklar bo'yicha o'qish dasturini shakllantirishdan avval o'z oldilariga quyidagicha savollarni qo'yishlari va ularga javob topishlari talab etiladi:

- Biz qanday mutaxassis tayyorlamoqchimiz?
- Bizning bitiruvchilarimiz aynan qanaqangi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi va OTM dasturlarini tamomlagandan so'ng qanday natijalarga erisha olishi kerak?
- Talabalarimiz shu bilim, ko'nikma va mahoratga ega bo'lishi uchun nimalarni (fanlar, mashg'ulotlar va tajribalarni) o'rganishi kerak?

Shu uchta savol haqida mulohaza qilish jarayonining o'zi o'quv dasturi qanday fanlar, mashg'ulotlar va tajribalardan tashkil topgan bo'lishi haqida xulosani ishlab chiqishga imkon beradi. Har bir OTM bakalavr va magistratura dasturi turlicha

bo'lganligi sababli uning maqsadlari ham turlicha bo'lishi tabiiy holat. Shuning uchun ham bu o'quv dasturlarini OTM darajasida ishlab chiqib, tasdiqlashadi.

Ya'ni, OTM lar o'zlarining har bir bakalavr va magistratura o'quv dasturining maqsadlarini bitiruvchi dastur davomida qo'lga kiritishi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va mahoratlar shaklida oldindan aniq belgilab olishlari zarur. Bu kredit-modul tizimi tili bilan aytganda "Program Learning Outcomes" deb ataladi. O'quv dasturlarining maqsadlari belgilab olingandan so'ng, endilikda ushbu dasturlarda faqat shu maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladigan fanlarga saqlab qolinishi yoki dasturga kiritilishi lozim bo'ladi, qolgan fanlar esa dasturni tark etishi lozim bo'ladi.

- OTM lar o'quv dasturlariga shaffoflik olib kirish;

Kredit-modul tizimiga o'tgandan so'ng OTMlar o'zlarining har bir bakalavr va magistratura dasturlari bo'yicha dastur katalogini, ya'ni kitobchasini ishlab chiqishlariga to'g'ri keladi. Unda har bir bakalavr va magistratura o'quv dasturlarining maqsadlari, o'qishga qabul qilish qoidalari, OTMdagi o'qish sharoitlari, akademik taqvimlar, talabalar 4 yillik yoki 2 yillik dastur davomida aynan qaysi fanlardan tahsil olishlari mumkinligi, ushbu fanlarning qisqacha tasnifi, qaysi fani aynan qaysi bosqichda o'qitilishi, bu fanlardan aynan qaysi professor o'qituvchilar dars berishi, OTMda talabalar uchun yotoqxonalar imkoniyatlari, talabalarning bir oylik o'rtacha yashash xarajatlari, OTMda qo'llaniladigan baholash usullari hamda mezonlari to'g'risida abituriyent va talabalarga avvaldan ochiq tarzda ma'lumot berilishi zarur. Bu ma'lumotlar har bir yangi o'quv yili boshida kitobcha tarzida talabalarga tarqatilishi yoki OTM veb-sahifasiga yuklab olish mumkin bo'lgan formatda joylashtirilishi zarur.

- OTM lar o'quv mashg'ulotlarni shaffof tarzda tashkil etish;

Kredit-modul tizimida esa OTM ning har bir o'qituvchisi o'zining har bir fani bo'yicha 4-5 varoqli fan dasturiga, ya'ni "syllabus" ga ega bo'lishi va uni semestr boshida talabalarga taqdim etishi kerak bo'ladi. Fan dasturi o'zida ushbu fanning maqsadlari uning o'quv dasturida tutgan o'rni, talabaning kelajakdagi kasbiy faoliyati uchun ahamiyati, talabalar ushbu fanni o'rganish natijasida nimalar qila olishi, ushbu fan bo'yicha semestr davomida o'rganiladigan mavzular, talabalar foydalanishi zarur

va mumkin bo'lgan adabiyotlar ro'yxati, baholash mezonlari haqidagi ma'lumotlarni qamrab oladi. Agar fan tanlov fani bo'lsa, talaba uchun bunday ma'lumotlarning ahamiyati juda katta. Chunki talaba fanni tanlash yoki tanlamaslik bo'yicha qarorga kelishi uchun fanni nomini yoki uni o'qitadigan o'qituvchining ism, familiyasini bilishni o'ziga kifoya qilmaydi. Talaba bunday qarorga kelishi uchun fan bo'yicha yetarli ma'lumotga ham ega bo'lishi kerak.

- Akademik bilimlarni hamda kvalifikatsiyani tan olinishini osonlashtirish;

OTMlari uchun yagona kredit tizimining joriy etilishi talabalarning mobilligini ta'minlaydi. Talaba belgilangan kredit ballarini to'plagan taqdirdagina diplom oladi. Kredit tizimi barcha o'qitish shakllarining nazoratini o'z ichiga oladi (auditoriya va auditoriyadan tashqari). Demak, u nafaqat o'quv faoliyatiga berilgan baho, balki bajarilgan o'quv yuklamasini ko'rsatib turuvchi birlikdir. Kredit tizimining asosini, albatta, reyting ball tizimi tashkil etadi. Kredit tizimiga o'tish talabalarga xorijda o'qishni davom ettirishi uchun shart-sharoit yaratishga xizmat qiladi. O'zbekistonda ta'lim olingan muddatning xorijiy davlatlarda ham tan olinishini ta'minlaydi.

Kredit modul tizimida GPA tushunchasi. GPA (ing. Grade Point Average) - o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatgichi bo'lib talabaning dastur bo'yicha egallagan bilimlarining o'rtacha miqdori hisoblanadi.

Bunda fan bo'yicha ajratilgan kreditlarni K_1, K_2, K_3 va K_n deb, baholarni G_1, G_2, G_3 va G_4 deb belgilasak GPA kredit va baholar ko'paytmalari yig'indisining umumiy kreditlar yig'indisiga nisbati bilan hisoblanadi.

$$GPA = \frac{K_1 \cdot G_1 + K_2 \cdot G_2 + K_3 \cdot G_3 + \dots + K_n \cdot G_n}{K_1 + K_2 + K_3 + \dots + K_n}$$

Aytaylik 5 ta fan uchun 24 kredit ajratilgan bo'lib, 4,3,5,6 va 7 kreditdan taqsimlangan bo'lsa ulardan to'plangan baholar esa 4,3,5,4 va 5 bo'lsin. Talabaning GPAsini hisoblaymiz.

$$GPA = \frac{4 \cdot 4 + 3 \cdot 3 + 5 \cdot 5 + 6 \cdot 4 + 6 \cdot 5}{4 + 3 + 5 + 6 + 6} = \frac{16 + 9 + 25 + 24 + 30}{24} = \frac{104}{24} = 4,3 \text{ ball.}$$

GPA tushunchasi talabani:

- Ish beruvchi tashkilot tomonidan ishga qabul qilishda;
- Talabani kursdan-kursga o'tkazishda;
- O'qishini ko'chirish davomida o'quv natijalarining tan olinib, tegishli kursga qabul qilinishida;
- Akademik mobillik hamda talabalar almashinuvida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, bu tizimning afzalligi shundaki, talaba ta'lim jarayoni davrida chet-el o'quv yurtlarida yoki o'zga ta'lim yurtida tahsil olib, so'ng o'qishni davom ettirishi mumkin. O'quv jarayonida chet el o'quv yurtlari va tashqi muassasalardan malakali mutaxassislar jalb etiladi. Chet el OTMlari amaliyotidan kelib chiqqan holda o'quv dasturlari ishlab chiqiladi. Talabalar o'zi istagan tanlov fanlarini tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”, 1-ilovasi, 9-bandi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2020-yil 30-iyundagi 357-sonli buyrugi, 1-ilovasi.

3. 2015 Europea Credit Transfer and Accumulation System (ECTS) User’s Guide, a Joint Project by the European Higher Education Area, the Bologna Process and European Commission in 2015. Yevropa kreditlarni ko‘chirish va jamg‘arib borish tizimi bo‘yicha foydalanuvchiga ko‘llanma (ECTS).

4. Jessica Shedd (2003), “The History of the Student Credit Hour”. *New Directions for Higher Education*. 122 (Summer) (122): 5-12.

5. “Xalq so‘zi” gazetasi. Kredit-modul tizimiga o‘tish nima uchun kerak? 2020-yil 5-avgust, N 163 (7665).

6. Resolutio of The Council and of the Ministers of Education, Meeting within the Council, *Official Journal of the European Communities*, 1976. <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/en/txt/pdf/?uri-CELEX:41976X0219&from>.

7. www.xs.uz

8. www.ma.rifat.uz